

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

АДАПТИВНОЕ БИЗНЕС-ПЛАНИРОВАНИЕ КАК ИНСТРУМЕНТ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	10
Шарипов Конгратбай Авезимбетович, Исматуллаев Темур Равшан угли	
STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI	18
Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА.....	26
Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишеревич	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	35
Габбарова Ильмира Володиевна	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH.....	41
Amirov Shavkat Rahmatullayevich	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ	48
Усманова Азиза Баходировна	
PEREGONDAGI HARAkatNI BOSHqARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSessorLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIqISH.....	53
Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	62
Alimova Dilafro'z Tohir qizii	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	68
Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR.....	67
Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	74
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	82
Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHqARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI.....	89
Muxtorova Shaxlo Farxodovna	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH.....	101
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY	106
Sultanova Kamila Mukhtorali kizi	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	111
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	117
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI	123
Turdikulova Moxira Maxmasharifovna	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIYAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI	127
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI	132
Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQISH...	143
Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin	
JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	147
Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.	
KORXONALARDA "TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH" KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISHNING XORIJ TAJIRIBASI	151
Mamasoliyev G'ayratbek Maxamadyusupovich	
HUDUDIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA MAHSULOT EKSPORTINI DIVERSIFIKATSIYALASH YO'LLARI.....	156
Mamadjanova Tuyg'unoy Axmadjanovna	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQRISHNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH ASOSIDA YUQORI QO'SHILGAN QIYMATLI MAHSULOTLAR ULUSHINI KENGAYTIRISH	161
Yusupova Feruza Yo'ldoshevna	
AHOLINING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA MIKROLOYIHALARNING O'RNI	166
Irgashev Anvar Farxodovich	
XALQARO KOMPANIYALARDA INNOVATSION BOSHQARUV TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	173
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ИССЛЕДОВАНИЕ ПРОЦЕССА ДЕГРАДАЦИИ КОМПОНЕНТОВ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ МОДУЛЕЙ В ЗАВИСИМОСТИ ОТ КЛИМАТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ: ЛИТЕРАТУРНЫЙ ОБЗОР	178
Дыскин Валерий Григорьевич, Курбанов Юнус Муртаза угли, Жубаназаров Ринат Шапагат Улы	
RIVOJLANGAN DAVLATLARDA CHIQINDILARNI QAYTA ISHLASH TIZIMINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI	184
O'tbosarov Abrorbek Adxamjon o'g'li	
DAVLAT ORGANLARI VA TASHKILOTLARI ICHKI AUDITORLARINING PROFESSIONAL AXLOQ QOIDALARINI ISHLAB CHIQRISH.....	189
Xamidova Zarifa Urol qizi	
AUDIT JARAYONIDA DALIL OLISH VA UNING MUAMMOLARI	196
Ro'zmetov Mansur	
O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY TURIZMNI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	200
Shaydulova Marjona Alisher qizi	
KORXONALARNING MOLIYAVIY HOLATINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR VA ULARNING MOLIYAVIY TAHLILI AHAMIYATI.....	205
Rizoyev Farrux Hikmatilloevich	
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK SANOAT ZONALARIDA IQTISODIY SALOHİYATNI TAKOMILLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	210
Turaboev Ibroxim Ismoil o'g'li	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	215
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	



СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УСЛОВИЯХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ РЕФОРМ	225
Юсупов Зойиржон Ровшан угли, Жумаев Улуғбек Нодирбекович ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ УПРАВЛЕНИЯ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ КОМПАНИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ЛОГИСТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ	231
Тожалиев Шохрух Талип ўғли GAMES ARE A POWERFUL TOOL FOR IMPROVING LANGUAGE LEARNING	236
Kulakhmedova Gulnora Abdurahimovna O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARINING INNOVATSION XIZMATLARI ORQALI KAMBAG'ALLIKNI KAMAYTIRISH	241
Azlarova Aziza Axrorovna AVTOMOBIL SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINI BOSHQARISH VA RISKLARNI KAMAYTIRISH MEKANIZMLARI	248
Marufxanov Davron Hasanovich O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING YANGI IMKONIYATLARI: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA ISTIQBOLLARI	255
Isakjanova Saboxat Muhamedovna MINTAQA IQTISODIYOTI VA SANOATNING RIVOJLANISHI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNING NAZARIY YONDASHUVLARI	263
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISHNI JORIY ETISHDA ASOSIY MUAMMOLAR VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	268
Anvar Deberdiyev RAQAMLI XIZMATLARNING O'ZBEKISTON TASHQI SAVDO BALANSIDAGI O'RNI	272
Latipova Shaxnoza Maxmudovna, Normurodova Zuhra Orzimurod qizi TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI	278
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna IQTISODIY TIZIMDA TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK QOBILİYATIGA YANGICHA YONDASHUV	283
Tadjiev Bexzod Umidjanovich OTMNI MOLIYAVIY TA'MINLASHNING INNOVATSION MOLIYAVIY MODELARI	290
Tuxliyev Bozor Karimovich TOG'-KON SANOATI KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI	293
Abirova Nargizabonu TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHNI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	298
Ro'ziyeva Maftuna Yusufovna OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI KORXONALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHDA IQTISODIY KO'RSATKICHLAR DINAMIKASINING EMPIRIK TAHLILI	303
Sharipova Shahlo Istamovna METROLOGIYANING ILMIY-METODIK ASOSLARI VA UNING ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	308
Maxmudov Dostonbek Soyibjon o'g'li SANOAT KORXONALARIGA KIRITILGAN INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	312
Mirzakulova Risolat Musurmankulovna O'ZBEKISTONDA RAQAMLI DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Ibragimova Saodat, Mirhamidova Dilorom, Shagaipova Gulchehra	



OLIY TA'LIM BITIRUVCHILARI SONINING JISMONIY SHAXSLAR DAROMAD SOLIG'IGA TA'SIRI VA INSON KAPITALI ORQALI IJTIMOYIY XARAJATLARNI BOSHQARISH.....	323
Primova Nigora Ikrom qizi	
GLOBAL BIZNESDA INNOVATSIYALARNING ROLI: YANGI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHGA STRATEGIK YONDASHUVLAR	331
Raxmankulov Sherzod Shokirovich	
ELEKTRON TIJORAT BILAN SHUG'ULLANUVCHI KORXONALARDA MIJOZLAR QONIQLASH DARAJASI..	337
Aripov Ulug'bek Bahodirovich	
KICHIK BIZNESDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	341
Xakimov Akbar Anvarovich	
FOTOELEKTRIK TIZIM SAMARADORLIGIGA HARORAT, SOYALANISH VA DEGRADATSIYA OMILLARINING TA'SIRI.....	344
Majidova Maxliyo A'zam qizi	
ISSIQLIK TEXNIKASIDA IKKILAMCHI BUG'DAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	354
Komilova Nodira Abdirahmon qizi	
STUDY OF THE INFLUENCE OF MEMBRANE REACTOR ON METHANE CONVERSION WITH WATER VAPOR AND CARBON OXIDE (IV).....	362
Umida Shabarova, Sugdiyana Abdurasulova	
ESG MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN: EVALUATION PRACTICES, KEY DETERMINANTS, AND STRATEGIC PRIORITIES.....	367
Sanemkhan Abdullaeva	
UMUMIY O'RTA TA'LIM MUASSASALARIDA BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STRATEGIK MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI	375
Boymirzayev Doniyorbek Anvarjon o'g'li	
PEDAGOGIK MAHORATNI OSHIRISHDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ORQALI TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRADIGAN PLATFORMA ISHLAB CHIQLASH	379
Salomov Shokirjon, Boboyev Shavkat, Normamatov Xayriddin	
ПОВЫШЕНИЕ ОГНЕСТОЙКОСТИ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ ВТОРИЧНОГО ПОЛИЭТИЛЕНА.....	386
Назаров Феруз, Назаров Фарход, Ахмедова Фазилат, Элмуродов Элгез, Янгибоев Асадбек	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INNOVATSION JARAYONLARNI JADALLASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	391
Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich, Rasulov Akmal Xurshid o'g'li	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	397
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
MADANIY MEROS OBYEKTLARINING TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDAGI STRATEGIK AHAMIYATI	403
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
EKSPORT VA IMPORTDA TRANSPORT LOGISTIKASINING AHAMIYATI.....	407
Yodgorova Shaxnoza Xayridinovna, Bazarova Sevinch Salim qizi	
XORAZM VILOYATINING IQTISODIY SALOHİYATI VA TRANSPORT INFRATUZILMASINING TARKIBI HAMDA JORIY HOLATI	411
Karimova Shaxnoza O'ktamovna	
TURISTIK KORXONALAR INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	418
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI INFRATUZILMALARINI RIVOJLANTIRISH	423
Xalimov Shaxboz Xalimovich	
AKTIVLAR QADRSIZLANISHI XARAJATLARINING MOLIYAVIY VA SOLIQ HISOBOTLARIGA TA'SIRI.....	427
Jarimbetov Ajiniyaz Kurbanbaevich	



MUHANDISLIK GEOMETRIYASI VA KOMPYUTER GRAFIKASI FANLARINI O'QITISHDA MULTIMEDIA VA INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM NATIJALARIGA TA'SIRI: AUDIO VA VIDEOTEKNOLOGIYALAR IXTISOSLIGI MISOLIDA EMPIRIK TADQIQOT.....	430
Utkirova Mamura Faxriddin qizi	
HUDUDiy TADBIRKORLIK TIZIMIDA INVESTITSION RESURSLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INSTITUTSIONAL VA EKONOMETRIK YONDASHUVLARI	436
Isakov Axmadali Esanbayevich	
MINTAQAVIY OZIY-OVQAT SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION RIVOJLANISHIGA INVESTITSION RESURLARNING TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH	444
Abdunabiyev Sirojiddin G'anijon o'g'li	
XABAR ALMASHISHGA ASOSLANGAN MARKETINGDA ISTE'MOLCHILARNING SHAXSIY HAYOTINI KUTILMALARI	452
Raxmatova Sitora Shuxratjon qizi	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI OPTIMALLASHTIRISH VA SOG'LOM RAQOBAT MUHITINI SHAKLLANTIRISH: XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT SEKTORINI INSTITUTSIONAL ISLOH QILISHNING QIYOSIY TAHLILI.....	461
Sharapov Umidjon Shavkatovich	
ZAMONAVIY SERVIS KOMPANIYALAR TANNARXINI ANIQLASHNING DOLZARB YO'NALISHLARI	471
Berdiyeva Dilfuza Axatovna	
NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKT LARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI	477
Turayev Abduvoxid Kuldashevich	



NAVOIY VILOYATINING TURISTIK OBYEKTLARI VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI REKREATIONSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI TAHLILI

Turayev Abduvoxid Kuldashevich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Raqamli iqtisodiyot kafedrasida assistenti

E-mail: abduvoxidturayev70@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Navoiy viloyatining rekreatsion turizm salohiyati, turistik obyektlardan samarali foydalanish yo'llari hamda ularning hududiy xizmatlar iqtisodiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. Rasmiy qarorlar, Stat.uz va Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida viloyatda dam olish, ekoturizm, ziyorat, foto-turizm va sog'lomlashtirish yo'nalishlarini kompleks rivojlantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Navoiy viloyati, rekreatsion turizm, turistik obyektlar, Aydarko'l, To'dako'l, Sarmishsoy, Chashma, xizmatlar sohasi, ichki turizm, turizm infratuzilmasi.

Аннотация. В данной статье анализируется рекреационный туристический потенциал Навоийской области, пути эффективного использования туристических объектов и их влияние на экономику региональных услуг. На основе официальных решений, данных Stat.uz и Комитета по туризму разработаны практические предложения по комплексному развитию направлений отдыха, экотуризма, паломнического, фототуризма и оздоровительного туризма в регионе.

Ключевые слова: Навоийская область, рекреационный туризм, туристические объекты, Айдаркуль, Тудакуль, Сармышсай, Чашма, сфера услуг, внутренний туризм, туристическая инфраструктура.

Abstract. This article analyzes the recreational tourism potential of the Navoiy region, ways of efficient use of tourist facilities, and their impact on the regional service economy. Based on official decisions, Stat.uz data, and information from the Tourism Committee, practical proposals are developed for the integrated development of leisure, ecotourism, pilgrimage, photo tourism, and health tourism directions in the region.

Keywords: Navoiy region, recreational tourism, tourist facilities, Aydarkul, Tudakul, Sarmishsoy, Chashma, service sector, domestic tourism, tourism infrastructure.

KIRISH

Rekreatsion turizm aholining dam olishi, sog'lomlashishi, tabiat qo'ynida vaqt o'tkazishi va hududiy madaniy meros bilan tanishishiga xizmat qiladigan muhim turizm yo'nalishidir. Mazkur turizm turi iqtisodiy jihatdan faqat sayohat xarajatlari bilan cheklanmaydi, u transport, ovqatlanish, mehmonxona, gidlik, hunarmandchilik, ko'ngilochar xizmatlar va mahalliy mahsulotlar savdosini ham harakatga keltiradi. Shu sababli rekreatsion turizm hududiy xizmatlar iqtisodiyotining barqaror manbalaridan biri sifatida qaraladi.

Navoiy viloyati rekreatsion turizm uchun respublikaning eng o'ziga xos hududlaridan biridir. Qizilqum cho'li landshafti, Aydarko'l va To'dako'l suv havzalari, Sarmishsoy petrogliflari, Nurota tog' oldi hududlari, Chashma majmuasi, qadimiy korizlar va tarixiy qal'alar viloyatda dam olish, ekoturizm, ziyorat, foto-turizm va qisqa muddatli ichki sayohat paketlarini shakllantirish imkonini beradi. Viloyatning yirik sanoat markazi sifatidagi maqomi ham turizm xizmatlari uchun barqaror ichki talab yaratadi.

O'zbekiston – 2030 strategiyasida xorijiy turistlar sonini 20 million nafarga, ichki sayyohlarning respublika bo'ylab safarlarini 25 milliontaga yetkazish, turizm xizmatlari eksportini 6 milliard AQSH dollariga chiqarish va turizmning YalMdagi ulushini 7 foizga yetkazish belgilangan. Bu vazifalarni bajarishda Navoiy viloyatidagi rekreatsion maskanlarni iqtisodiy muomalaga kiritish, ularni sifatli servis va xavfsiz infratuzilma bilan bog'lash alohida ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Navoiy viloyatida rekreatsion turizmni rivojlantirishni tahlil qilishda normativ-huquqiy hujjatlar, rasmiy statistika va turizm menejmentiga oid zamonaviy tadqiqotlar muhim asos bo'ladi. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlaridan PF–21-son farmoni turizm sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish bo'yicha aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilaydi. Ushbu hujjatda turizm klasterlari, turizm mahallalari va qishloqlari, ichki sayyohlar safarlari, mehmon o'rinlari va turizm xizmatlari eksporti kabi indikatorlar belgilangan bo'lib, ular hududiy turizmni baholashda metodik asos vazifasini bajaradi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son qarori Navoiy viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda xizmat ko'rsatish, transport, investitsiyalar, "yashil hududlar" va turizm infratuzilmasini birgalikda rivojlantirishni nazarda tutadi. Qarorda viloyat bo'yicha turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil etish, turistlar sonini oshirish hamda hududlarda xizmatlar bazasini kengaytirish bo'yicha aniq ko'rsatkichlar berilgan.

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari turizm rivoji uchun zarur bo'lgan hududiy iqtisodiy muhitni baholash imkonini beradi. 2025-yilda Navoiy viloyatida yalpi hududiy mahsulot 7,7 % ga, sanoat 8,3 % ga, qurilish 6,8 % ga, bozor xizmatlari 13,7 % ga, tashqi savdo 46,4 % ga o'sgani qayd etilgan. Bu ko'rsatkichlar rekreatsion turizm uchun xizmatlar, investitsiya va logistika bazasi kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Turizm qo'mitasi axborotlarida 2025-yil yanvar–noyabr oylarida mamlakatga 10,7 million nafar xorijiy sayyoh tashrif buyurgani, turizm xizmatlari eksporti 4,4 milliard AQSH dollariga yetgani, 954 ta joylashtirish vositasi ishga tushgani va ularning umumiy soni 6861 taga yetgani qayd etiladi. Bu ma'lumotlar Navoiy viloyati kabi yangi rekreatsion yo'nalishlar uchun bozor talabining mavjudligini tasdiqlaydi.

Raqamli turizm bo'yicha tadqiqotlarda turistik korxonalar boshqaruvida smart infratuzilma, Big Data, sun'iy intellekt va raqamli marketing vositalarining ahamiyati ta'kidlanadi. M. Mamanov tadqiqotida Singapur, Ispaniya, Janubiy Koreya, BAA va Turkiya tajribasi asosida turizmni real vaqt ma'lumotlari, mobil ilovalar, onlayn bronlash va raqamli marketing platformalari orqali boshqarish zarurligi ko'rsatilgan. Bunday yondashuv Navoiy viloyatida rekreatsion obyektlarni yagona elektron xarita va xizmatlar platformasiga ulash uchun dolzarbdir.

B. Bekmurodov va L. Ergasheva tadqiqotida O'zbekiston turizmida sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili, blokcheyn, virtual va kengaytirilgan reallik texnologiyalaridan foydalanish xizmat sifatini oshirish va turistlar tajribasini boyitish omili sifatida izohlanadi. Rekreatsion turizmga bunday texnologiyalar obyekt haqida tezkor ma'lumot berish, marshrutlarni shaxsiylashtirish va xavfsiz to'lov tizimlarini joriy etishda muhim vosita bo'la oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Navoiy viloyatida olib borilgan tadqiqotda tizimli tahlil, statistik guruhlash, qiyosiy tahlil va amaliy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Birinchi bosqichda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, rasmiy qarorlar, Milliy statistika qo'mitasi hamda Turizm qo'mitasi ma'lumotlari o'rganildi. Ikkinchi bosqichda viloyatdagi asosiy rekreatsion obyektlar foydalanish yo'nalishlari bo'yicha guruhlandi. Uchinchi bosqichda turizm infratuzilmasi, turistlar oqimi va xizmatlar tarmog'i ko'rsatkichlari asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlilda obyektlarning rekreatsion jozibadorligi, transportga yaqinligi, mavsumiy foydalanish imkoniyati, xizmatlar bilan ta'minlanish darajasi, ekologik yuklama hamda mahalliy aholining bandligiga ta'siri asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Navoiy viloyatining turistik obyektlari bir xil turdagi mahsulot emas, balki bir-birini to'ldiruvchi rekreatsion paketlar yaratish imkonini beradi. Aydarko'l va To'dako'l suv bo'yi dam olish xizmatlari uchun, Sarmishsoy madaniy va foto-turizm uchun, Chashma majmuasi ziyorat va sog'lomlashtirish turizmi uchun, Qizilqum cho'li esa cho'l safari va ekoturizm uchun asos bo'la oladi (1-jadval).



1-jadval.

Navoiy viloyatining asosiy rekreatsion turistik obyektlari

T/r	Obyekt	Joylashuvi	Rekreatsion yo'nalish	Samarali foydalanish shakli
1	Aydarko'l suv havzasi	Nurota-Konimex yo'nalishi	Suv bo'yi dam olish, ekoturizm	Sohil infratuzilmasi, xavfsizlik va ekologik marshrutlar
2	To'dako'l suv havzasi	Qiziltepa hududi	Oilaviy dam olish, resort xizmatlari	Joylashtirish, ovqatlanish, sport va ko'ngilochar xizmatlar
3	Sarmishsoy davlat muzey-qo'riqxonasi	Navbahor tumani	Arxeologik va foto-turizm	Gidlik, QR-ma'lumot, xizmat nuqtalari
4	Chashma majmuasi	Nurota tumani	Ziyorat va sog'lomlashtirish	Ziyorat paketlari, sanitariya infratuzilmasi, hunarmandchilik savdosi
5	Nur qal'asi va qadimiy koriz	Nurota tumani	Tarixiy-rekreatsion turizm	Axborot peshlavhalari, ekskursiya yo'nalishlari
6	Qizilqum cho'li landshafti	Viloyat cho'l hududlari	Cho'l safari, ekstremal va ekoturizm	O'tov lagerlari, tuya karvoni, ekologik standartlar

Manba: rasmiy qarorlar, Turizm qo'mitasi axborotlari va muallif tahlili asosida tuzildi.

Navoiy viloyatidagi obyektlar turli segmentlarga xizmat qiladi. Samarali foydalanishning asosiy yo'li ularni alohida obyekt sifatida emas, balki "Navoiy rekreatsion halqasi" ko'rinishidagi birlashtirilgan marshrutlar orqali taklif qilishdir. Masalan, Navoiy shahri – Sarmishsoy – Nurota – Aydarko'l yo'nalishi qisqa muddatli ichki turizm uchun qulay paket bo'lishi mumkin (2-jadval).

2-jadval.


Navoiy viloyati turizm va rekreatsion infratuzilmasi bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Maqsadli qiymat	Rekreatsion turizm uchun talqin
Turizm obyektlari va dam olish joylarini tashkil qilish	dona	84	Dam olish va xizmat ko'rsatish maskanlari tarmog'i kengaytiriladi
Turistlar sonini oshirish	ming kishi	2 298,0	Rekreatsion yo'nalish umumiy turistik oqimni ko'paytiradi
Xorijiy turistlar	ming kishi	80,6	Sarmishsoy, Aydarko'l va Nurota xalqaro marshrutlarga ulanishi lozim
Ichki turizm hisobiga	ming kishi	2 217,4	Oilaviy dam olish, ziyorat va hafta oxiri sayohatlari asosiy segment bo'ladi
Yashil hududlarni ko'paytirish	gektar	500	Dam olish maskanlarida ekologik muhit va soyali hududlar kengayadi

Manba: Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 27-apreldagi 217-son qarori ilovalari asosida tuzildi.

Diagramma ichki turizm Navoiy viloyati rekreatsion salohiyatining asosiy tayanch bozori ekanini ko'rsatadi. Xorijiy turistlar ulushi nisbatan kam bo'lsa ham, yuqori qiymatli mahsulotlar — cho'l safari, etnoturizm, foto-turizm va ziyorat-ekoturizm kombinatsiyasi orqali xizmatlar eksportini oshirish imkonini beradi (1-rasm).

1-rasm. Navoiy viloyati bo'yicha turistlar oqimining maqsadli tarkibi



Manba: Vazirlar Mahkamasining 217-son qarori asosida muallif tomonidan tuzildi.

Navoiy viloyati bo'yicha 2025-yilgi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar rekreatsion turizmni rivojlantirish uchun zarur xizmatlar bazasi shakllanayotganini ko'rsatadi. Bozor xizmatlari hajmining 13,7 % ga o'sishi turizmga yaqin tarmoqlar — transport, ovqatlanish, joylashtirish, savdo va maishiy xizmatlar uchun ijobiy muhit yaratadi (3-jadval).

3-jadval.

Navoiy viloyatining 2025-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	2025-yil holati yoki o'sish sur'ati	Turizm uchun ahamiyati
Doimiy aholi soni	1 111 898 kishi	Ichki xizmatlar bozori va mehnat resurslari bazasi
Yalpi hududiy mahsulot	7,7 % o'sish	Hududiy iqtisodiy faollik oshmoqda
Sanoat ishlab chiqarish	8,3 % o'sish	Korporativ va biznes sayohatlar uchun talab yaratadi
Qurilish ishlari	6,8 % o'sish	Turizm infratuzilmasini kengaytirish imkoniyati
Chakana savdo aylanmasi	10,6 % o'sish	Turist xarajatlarini qabul qiluvchi savdo muhiti
Bozor xizmatlari	13,7 % o'sish	Mehmonxona, ovqatlanish, transport xizmatlari uchun asos
Tashqi savdo	46,4 % o'sish	Xalqaro aloqalar va logistika imkoniyatlari kengaymoqda
Eksport	25,0 % o'sish	Xizmatlar eksportini oshirishga sharoit yaratadi
Real umumiy daromadlar	8,9 % o'sish	Ichki turizm talabi uchun daromad omili kuchayadi


Manba: Milliy statistika qo'mitasining Navoiy viloyati bo'yicha 2025-yilgi ma'lumotlari asosida tuzildi.

Navoiy viloyatida diagrammadan ko'rinadiki, eng yuqori o'sish tashqi savdo va eksportda kuzatilgan.



Rekreatsion turizm nuqtai nazaridan bu hududning tashqi aloqalari kengayotganini anglatadi. Bozor xizmatlari va chakana savdo o'sishi esa turistlar oqimi ortganda xizmat ko'rsatish sektorining javob berish imkoniyatini kuchaytiradi (2-rasm).

2-rasm. Navoiy viloyati ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari, 2025-yil



Manba: Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar xorijiy turist kelgani mamlakatning xalqaro turizm bozorida mavqei mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yilning 11 oyida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil" dasturi doirasida aholining hududlarga 23,7 million marta tashrifi amalga oshirilgan. Bu ko'rsatkichlar Navoiy viloyati uchun ichki va xalqaro bozor talabining mavjudligini tasdiqlaydi (4-jadval).

4-jadval.

Rekreatsion turizmni samarali rivojlantirish bo'yicha takliflar

Yo'nalish	Amaliy choralar	Kutiladigan natija
Marshrutlash	Navoiy-Sarmishsoy-Nurota-Aydarko'l yo'nalishini standart paketga aylantirish	Turistning hududda qolish vaqti uzayadi
Raqamli axborot	QR-kod, elektron xarita, onlayn bronlash va to'lov tizimini joriy etish	Xizmat qulayligi va shaffofligi oshadi
Ekologik boshqaruv	Aydarko'l, To'dako'l va Qizilqum hududlarida ekologik yuklama me'yorlarini belgilash	Tabiiy resurslar saqlanadi
Mahalliy bandlik	Gid, hunarmand, transportchi va oilaviy mehmon uylari tarmog'ini kengaytirish	Aholi daromadi ortadi
Marketing	Ichki bozor uchun "hafta oxiri Navoiyda" paketlarini targ'ib qilish	Dam olish kunlari oqimi ko'payadi
Xavfsizlik	Suv bo'yi hududlarida qutqaruv, tibbiy va sanitariya punktlarini kuchaytirish	Turist ishonchi oshadi



XULOSA VA TAKLIFLAR

Navoiy viloyati rekreatsion turizmni rivojlantirish uchun tabiiy, tarixiy va infratuzilmaviy zaxiraga ega. Viloyatning ustunligi shundaki, u bir vaqtning o'zida suv bo'yi dam olish, cho'l turizmi, ziyorat, arxeologik turizm va qisqa muddatli ichki sayohatlarni birlashtira oladi. Tahlillar turistik obyektlardan samarali foydalanish uchun ularni yagona marshrutlar, xizmat sifati standarti, raqamli axborot tizimi va ekologik boshqaruv bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Taklif sifatida quyidagilarni ilgari surish mumkin: birinchidan, Navoiy viloyatida rekreatsion turizm obyektlarini yagona elektron xaritaga kiritish; ikkinchidan, Aydarko'l va To'dako'l atrofida xavfsiz sohil xizmatlari standartini joriy etish; uchinchidan, Sarmishsoy va Nurota yo'nalishida ko'p tilli gidlik va QR-ma'lumot tizimini kengaytirish; to'rtinchidan, mahalliy tadbirkorlarni oilaviy mehmon uylari, ovqatlanish, transport va hunarmandchilik savdosiga jalb etish; beshinchidan, rekreatsion hududlarda ekologik yuklama va sanitariya talablarini qat'iy nazorat qilish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" PF-21-son Farmon. <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>
2. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *Navoiy viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati raqamlarda*. Toshkent, 2026.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. *2025-yilda O'zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan*. Toshkent, 2026.
4. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. *Turizm sohasida barqaror o'sish*. Toshkent, 2025.
5. M. Q. Mamanov. Raqamli transformatsiya sharoitida turizm menejmentini rivojlantirish istiqbollari. "XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali, Toshkent, 2026, №1, 190–194-betlar.
6. B. F. Bekmurodov, L. S. Ergasheva. Raqamli iqtisodiyot sharoitida O'zbekistonda barqaror turizmni rivojlantirish uchun raqamli innovatsiyalarni joriy etish, 2025.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100